


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4036,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,9 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (26,8 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


### 2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3266,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan (769,9 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2019-yil yanvar-avgust oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi (526,7 mlrd. so'mga) ko'paydi.

**2019-yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (133,2 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (121,3 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (88,4 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (30,3 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar  
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	<b>Hajmi mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>4036,1</b>	<b>114,9</b>
Nukus sh	2535,0	116,6
Amudaryo	134,9	109,1
Beruniy	134,4	107,8
Qorao'zak	34,4	107,9
Kegeyli	43,2	107,9
Qo'ng'irot	471,9	123,1
Qonliko'l	33,3	107,9
Mo'ynoq	15,0	107,9
Nukus t.	32,1	109,1
Taxiatosh	32,7	105,6
Taxtako'pir	36,1	108,2
To'rtko'l	172,2	107,0
Xo'jayli	168,2	107,4
Chimboy	60,9	106,4
Shumanay	30,8	110,1
Ellikqal'a	101,0	108,4

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Nukus sh. (2535,0 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (471,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (172,2 mlrd. so'm), Xo'jayli (168,2 mlrd. so'm), tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (15,0 mlrd. so'm) tumanida kuzatilmoqda.


2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iro't tumani (123,1 %), Nukus shahri (116,6 %) va Shumanay tumani (110,1 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Chimboy (106,4 %), Taxiatio'sh (105,6 %) tumanlarida kuzatildi.

**2019- yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi  
bo'yicha jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %**




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (62,8 %), Qo'ng'iro't (11,7 %), va To'rtko'l (4,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,4 %), Shumanay (0,8 %) Taxiato'sh (0,8 %), Qarao'zak (0,8 %), Nukus (0,8 %) va Qanliko'l (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2147,1 ming so'mga teng bo'ldi. 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish 13,2 % ni tashkil qildi.

### 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 8004,5 ming so'm qayd etildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Taxiato'sh tumanida - 447,2 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iro't tumanida - 121,7 % kuzatildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy  
ko'rsatkichlari**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	4036,1	114,9
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,7	111,5
moliyaviy xizmatlar	720,1	174,7
transport xizmatlari	1079,9	109,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	569,3	100,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	120,5	103,9
savdo xizmatlari	945,5	103,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,5	102,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	176,8	98,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	45,4	101,1
ijara xizmatlari	90,6	105,7
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	124,1	102,6
shaxsiy xizmatlar	154,8	106,7
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	78,2	119,4
boshqa xizmatlar	116,0	102,0

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



- |   |   |
|---|---|
| 1 Xizmatlar - jami                      | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar                   |
| 2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar        |
| 3 Moliyaviy xizmatlar                   | 10 Ijara xizmatlari                             |
| 4 Transport xizmatlari                  | 11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari     | 12 Shaxsiy xizmatlar                            |
| 6 Savdo xizmatlari                      | 13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            |
| 7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 Boshqa xizmatlar                             |


2019-yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (74,7 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (19,4 %); Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (11,5 %); kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	26,8 %
Savdo xizmatlari	23,4 %
Moliyaviy xizmatlar	17,8 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,4 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,9 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,9 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,8 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Transport xizmatlari	1079,9 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	945,5 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	720,1 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	330,2 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,7 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	176,8 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	154,8 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,5 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	124,1 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	120,5 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1079,9 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (945,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (720,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (250,7 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste‘molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko‘rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 945,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,4 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo‘lib, uning ulushi 76,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,3 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %**



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar**

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (397,4 mlrd. so'm), Xo'jayli (99,5 mlrd. so'm) va To'rtko'l (87,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq (4,7 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 945,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 %.


**2019-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Shumanay tumani (109,3 %), Nukus shahri (105,2 %) va Taxtako'pir tumanida (104,2 %).

Eng kam o'sish sur'ati Taxiato'sh (97,2 %) tumanida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, %**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (42,0 %) va Xo'jayli (10,5 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,5 %) va Shumanay (1,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1079,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 %

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (482,1 mlrd. so'm) va Qo'ng'iro't tumanida (366,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq tumanida (2,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iro't tumanida (29,2 %) kuzatildi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 720,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 174,7 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



**Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi  
71-230-82-15**